

semestrda fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmaganini ko'rsatilib qaror qabul qiladi, qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta'minlaydi.

Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi «3» (qoniqarli) yoki «4» (yaxshi) yoxud «5» (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



ARXITEKTURAVIY LOYIHALASH ASOSLARI
fanining

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	700000 – Muhandislik ishlov berish va qurilish sohalari
Ta'lim sohasi:	730000 – Arxitektura va qurilish
Ta'lim yo'nalishi:	60730100 – Arxitektura (turlari bo'yicha)

Urganch – 2024

Mazkur o'quv fan dasturi Urganch davlat universiteti kengashining 2024-yil 29-iyundagi №11- sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor: S.U.Xodjaniyazov

Akademik faoliyat va registrator departamenti raxbari: G.R.Matlatipov

Mazkur o'quv dastur "Texnika" fakulteti Kengashining kafedrasining 2024-yil 24-iyundagi №11-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan

"Texnika" fakulteti dekani: M.Q.Qurbonov

Mazkur o'quv dastur "Arxitektura" kafedrasining 2024-yil 18-iyundagi №22-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan

"Arxitektura" kafedrasi mudiri: dots. M.B.Setmamatov

Fan/modul kodi ALA1112 (bakalavriat)	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1-2	ECTS - Kreditlar 6-4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 3-4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Arxitekturaviy loyihalash asoslari	1 - semestr		
	46	134	180
	2 - semestr		
Jami	60	60	120
	106	194	300
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda sodda loyihalarni tuzish uchun dastlabki grafik ko'nikmalarni rivojlantirish, kompozitsion badiiy-fazoviy mushohadasini, arxitekturadagi funktsiya, konstruktsiya va estetikaning ajralmas yaxlit jihatlarining kompozitsion yechimlarini topishni shakllantirish va kengaytirish, kasbiy mahoratini amaliyotga tatbiq eta olish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi – arxitektura debochasini tushuntirish, mavjud inshoot va me'moriy yodgorliklar chizmalarini bajarish hamda ijodiy yondoshgan holda kichik me'moriy shakllarni loyihalash vazifalari, kompozitsion uyg'unlikni ta'minlash yuzasidan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar shakllantirishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlar) Fan bo'yicha nazariy mashg'ulotlar nazarda tutilmagan. III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar. I SEMESTR 1-Qism. Massadagi Rim orderlarini bajarish. "Toskan" orderini modul tizimida (massalarda) topish. Amaliy mashg'ulotlarda talabalar order balandligini uch (kursi, ustun, antablement-to'sin) qismga bo'linishni, modularni aniqlash, toskan, dor, ion va korinf orderlarini modulini topish, chizish va kerakli		

yozuvlarni arxitekturaviy shriftlarda yozib bajarish (Vazifa A-3 format qog'ozida bajariladi).

1-Mavzu. Kirish. Arxitektura to'g'risida ma'lumot. Massadagi Rim orderlari. Modul tizimini tushuntirish.

2-Mavzu. Rim orderlarini qurishni tushuntirish. Toskan orderini «Modul» tizimi asosida (A-3 ga) formatda chizish.

3-Mavzu. Chizishni davom qildirish va kerakli yozuvlarni arxitekturaviy shriftlarda yozib bajarish.

4-Mavzu. Toskan orderiga kerakli yozuvlarni yozib tugatish va topshirish.

2-Qism.

Me'moriy o'lchov vazifasini bajarish. Tanlangan arxitekturaviy shakl bilan tanishish, krokler chizish, krok chizmalariga o'lchamlar qo'yish, chizmalarni masshtabga o'tkazish, masshtabda chizilgan ortogonal chizmalarni planshetda joylashtirish, o'lchov chizmalarni qalamda chizish, ustidan tush bilan yurgizib chiqish, o'lchamlarni va balandliklarni qo'yib chiqish, kerakli yozuvlarni arxitekturaviy shriftlarda bajarish.

5-Mavzu. Ortogonal proyeksiyalar: tarh, tarz, qirqim to'g'risida tushunchalar, ularni bir xil o'lchamga keltirish usullarini o'rgatish.

6-Mavzu. Me'moriy o'lchov vazifani bajarishni tushuntirish.

7-Mavzu. Me'moriy o'lchov vazifasiga obyekt tanlash va o'lchash.

8-Mavzu. Krok chizish. O'lchov ishlarini olib borish. Krok asosida chizmalarni masshtabga solish va chizish.

9-Mavzu. Me'moriy o'lchov vazifasini 0,55x0,75 sm o'lchamli planshetga joylashtirib chizish. Tarh, tarz, qirqim chizmalarini chizish va tushlash.

10-Mavzu. Kerakli yozuvlarni yozish va tushlash. Vazifani tugatish va topshirish.

3-Qism.

Akademik bo'yov mashqini bajarish. Planshetda olitva kvadrat (yoki to'g'ri to'rtburchak) sath ajratish, birinchi sathni bo'yov to'qlashib boruvchi 11-13 ta qismlarga bo'lib chiqish, qolgan beshta sathda arxitekturaviy bo'laklarni (yoki geometrik shakllarni) chizish, soyalar qurish, birinchi sathni bir tonda bo'yash, shakllarni fonini bo'yab ajratish, ikkinchi sathni pastga qarab to'qlashtirib bo'yash, uchinchi va oltinchi sathlarda shakllarni bo'yov vositasida fondan ajratish, arxitekturaviy shakllarni hajmini suvbo'yov vositasida ifoda etish. Mavzu mohiyatidan kelib chiqib, ranglar (xromatik, axromatik, issiq va sovuq...) haqida ham umumiy ma'lumot berish.

11-Mavzu. Vazifani tushuntirish 0,55x0,38 sm planshetga chizish.

12-Mavzu. Vazifani chizishni tugatib bo'yashga tayyorlash.

13-Mavzu. Shakllarni bo'yovda bo'yab chiqarish, soyalarni ishlab kuchaytirish va bo'yash

14-Mavzu. Vazifani bo'yab tugatish va topshirish.

4-Qism.

Me'moriy yodgorlik perspektivasini qurish. Me'moriy yodgorlikni o'rganish, perspektiva musavadalarni variantlarda qurib bajarish, maqbulini tanlash, ufq surat tekisliklarini aniqlash, kerakli kattalikdagi umumiy hajmda

perspektiva tasvirini planshetda joylashtirib chizish, bo'laklarini mayda detallarini chizish. Soyalarini qurib belgilash, inshootga mos anturaj tanlab chizish, bo'yovni umumiy suvbo'yov tamoyillari bo'yicha bajarish.

15-Mavzu. Me'moriy yodgorliklar to'g'risida tushuncha berish, yodgorlikni tahlil qilish. Me'moriy yodgorlikning perspektiv ko'rinishini qurish qonun-qoidalarini to'g'risida dastlabki tushunchalar berish va vazifani tanlash.

16-Mavzu. Binoning tarhi, tarzi, qirqimini proyeksiyalarda chizish. Me'moriy yodgorlik binosining tarhi, tarzi, qirqimini eskizda bir xil o'lchamga keltirish.

17-Mavzu. Me'moriy yodgorlik binosini bir xil o'lchamga keltirilgan tarzi, tarhi va qirqimi eskizini 55x75 o'lchamli qog'ozga joylashtirish. Me'moriy yodgorlik binosining tarhiga nisbatan ko'rish nuqtasini belgilab olish.

18-Mavzu. Me'moriy yodgorlik binosini perspektiv ko'rinishini qurish uchun F1 va F2 nuqtalari aniqlash va perspektiv ko'rinishini qurishni boshlash.

19-Mavzu. Me'moriy yodgorlik binosining perspektiv ko'rinishida bino qismlarini qurish.

20-Mavzu. Me'moriy yodgorlik binosining perspektiv ko'rinishini qurib tugatish va binoga tushuvchi soyalarini qurish. Me'moriy yodgorlik binosi vazifasini suvbo'yovda akademik bo'yash.

21-Mavzu. Me'moriy yodgorlik binosiga moslab anturaj chizish. Yozuvlarni moslashtirib yozish to'g'risida tushuntirish. Me'moriy yodgorlik binosi mayda hajmlarini va mayda detallarini (bezaklarni) bo'yab chiqarish.

22-Mavzu. Me'moriy yodgorlik binosi vazifasini fonini bo'yab ajratish. Me'moriy yodgorlik binosi anturajini bo'yash. Me'moriy yodgorlik binosi vazifasini bo'yashni tugatish va topshirish.

II SEMESTR

1-Qism.

Ichki muhitga ega bo'lmagan (usti yopiq) kichik me'moriy shaklini loyihalash. Sodda me'moriy loyiha mavzusini belgilash, tanlangan mavzu bo'yicha musavadalarni bajarish, ularni o'zaro qiyoslash, maqbul variantni musavadasi asosida klauzura bajarish, klauzurani baholash jarayonida ko'rsatilgan kamchiliklar ustida ishlash, chizmalar tarkibini aniqlash, ortogonal chizmalarni aniq masshtabda chizish, perspektivasini qurish, grafik usul tanlab bo'yash, arxitekturaviy shriftlarda bajarish **(Vazifa 55x75 o'lchamli planshetda bajariladi).**

1-Mavzu. Ichki muhitga ega bo'lmagan (usti yopiq) kichik me'moriy shakl loyihasi vazifasini tushuntirish.

2-Mavzu. Ijodiy g'oya va ularni qog'ozda aks ettirishni tushuntirish.

3-Mavzu. Mavzular bo'yicha eskizlar qilish. G'oya topish. Eskiz qilish.

4-Mavzu. G'oya ustida ishlash. Eskiz qilish. Maqbul variantni topib, g'oya ustida ishlash.

5-Mavzu. G'oya ustida ishlash, uni rivojlantirish va tasdiqlash. Tanlangan g'oya bo'yicha klauzura chizish.

6-Mavzu. Chizmalarni masshtabga tushirish. Chizmalarni planshetga joylashtirish va chizish.

7-Mavzu. Tarh, tarz va qirqim chizmalarini planshetga chizish. 8-Mavzu. Planshetga perspektivasini chizish. 9-Mavzu. Chizmalarga soyalarni tushirib chizish, kerakli o'lchamlarni yozib qo'yish. 10-Mavzu. Grafik usulda loyihaning tarzini, perspektivasini, bosh tarhini bo'yashni boshlash. 11-Mavzu. Tanlangan usulda tarzni, perspektivani va bosh tarhni bo'yash. 12-Mavzu. Anturajni bo'yash, fon berish. Soyalarni va tushuvchi soyalarni bo'yash. 13-Mavzu. O'lchamlarni va yozuvlarni ustidan tushlash. 14-Mavzu. Loyihani nihoyasiga yetkazish va topshirish. 2-Qism. Ichki muhitli kichik me'moriy shakl loyihasi. Minimal funktsiyani bajaruvchi loyiha o'zida bir-ikki yopiq muhiti (xonasi) mavjud bo'lgan kichik arxitekturaliy shakldan iborat. Mavzuni belgilash, tanlangan mavzu bo'yicha bir nechta musavvadalar bajarish, ularni o'zaro qiyoslash, maqbul variantni musavvasi asosida klauzura bajarish, klauzurani baholash jarayonida ko'rsatilgan kamchiliklar ustida ishlash, chizmalar tarkibini aniqlash, ortogonal chizmalarni aniq mashtabda chizish, perspektivasini qurish, ichki-tashqi muhit jihozini (qurilish ashyo) aniqlash, grafik usul tanlab bo'yash, arxitekturaliy shifrlarda yozuvlarni bajarish (Vazifa 55x75 o'lchamli planshetda bajariladi). 15-Mavzu. Ichki yopiq muhitga ega bo'lgan kichik me'moriy shakl loyihasi vazifasini tushuntirish. 16-Mavzu. Mavzular bo'yicha eskizlar qilish. G'oya topish. G'oya ustida ishlash. Eskiz qilish. 17-Mavzu. Maqbul variantni topib, g'oya ustida ishlash. G'oya ustida ishlash, uni rivojlantirish. G'oyani tasdiqlash. 18-Mavzu. Tanlangan g'oya bo'yicha klauzura chizish. 19-Mavzu. Chizmalarni planshetga joylashtirish va chizish. 20-Mavzu. Tarh, tarz, qirqim chizmalarini planshetga chizish. 21-Mavzu. Planshetga perspektivasini chizish. 22-Mavzu. Chizmalarga soyalarni tushirib chizish, kerakli o'lchamlarni yozib qo'yish. 23-Mavzu. Loyihaga grafik usul tanlab, bo'yashni boshlash. 24-Mavzu. Grafik usulda loyihaning tarzini, perspektivasini, bosh tarhini bo'yashni boshlash. Soyalarni bo'yash. 25-Mavzu. Tarh va qirqim chiziqlarni ustidan qora gel ruchkada chizish. Anturajni bo'yash. 26-Mavzu. O'lchamlarni va yozuvlarni ustidan tushlash. 27-Mavzu. Loyihani nihoyasiga yetkazish va topshirish. Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.	
---	--

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: I semestr 1. Dor, Ion va Korinf orderlarini jadval asosida mustaqil qurish va chizish (A3 format). 2. Me'moriy o'lchov topshirig'i bo'yicha A3 formatda xomaki chizma tayyorlash. 3. Me'moriy o'lchov topshirig'ini anturajlar bilan boyitish 4. A3 formatda anturaj va staffajlar tayyorlash. 5. Akademik bo'yov topshirig'i bo'yicha ma'lumotlar to'plash. 6. Arxitektura shifri 3 xil variantini yozish (A3 format). 7. Simmetrik, asimmetrik, hajmiy, frontal va fazoviy kompozitsiyalar to'g'risida tushunchalar berish. 8. Axromatik, xromatik ranglar. 9. Rangli va grafik usulda anturaj chizish (rangli, albom A3); 10. Geometrik shakllarda akademik bo'yov mashqini bajarish. 11. Mavjud me'moriy yodgorliklar to'g'risida tushunchalar berish. 12. Chet-el me'moriy yodgorliklarini o'rganish. 13. Me'moriy yodgorliklar bo'yicha slaydlar tayyorlash. II semestr 1. Ochiq muhitli kichik me'moriy shakllar loyihasi mavzusiga maket yoki chizmalar to'plamini tayyorlash. Maket uchun material tanlash. Loyiha mashtabini maket uchun tanlash va aniqlash. Tanlangan mashtab bo'yicha loyihani bichish. Maket yasashni boshlash. Maket yasashni davom ettirish (yirik qismlarini). Maket yasashni davom ettirish (asosiy qismlarini). Maket yasashni davom ettirish (mayda detallarini). Maket atrofi lanshaftini ishlash kerakli materiallar bilan boyitish. Maket kamchiliklari ustida ishlash. Maket kamchiliklari ustida ishlash. Tayyor maketni baholashga topshirish. 2. Yopiq muhitli kichik me'moriy shakllar loyihasi mavzusiga maket yoki chizmalar to'plamini tayyorlash: Maket uchun material tanlash. Loyiha mashtabini maket uchun tanlash va aniqlash. Tanlangan mashtab bo'yicha loyihani bichish. Maket yasashni boshlash. Maket yasashni davom ettirish (yirik qismlarini). Maket yasashni davom ettirish (asosiy qismlarini).	
---	--

	Maket yasashni davom ettirish (mayda detallarini). Maket atrofi lanshaftini ishlash kerakli materiallar bilan boyitish. Maket atrofi lanshafti kamchiliklari ustida ishlash. Maket kamchiliklari ustida ishlash. Tayyor maketni baholashga topshirish.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - fanga oid nazariy, amaliy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtira olish; - fanga oid ko'rsatkichlarni arxitekturaviy tahlil qilishda ijodiy fikrlay olish hamda ijodiy jarayonni tashkil etish usullari yuzasidan <i>tasavvur va bilinga ega bo'lishi</i>; - nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallagan bo'lishi va shu asosda arxitektura sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullana olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; - arxitektorlar amaliy faoliyatida innovatsion badiiy g'oyalarni samarali tatbiq etish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari - qisqa ma'ruzalar; - interfaol keys-stadilar; - amaliy mashg'ulotlar (eskizlar, chizmalar va maketlar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - individual loyihalar; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha chizmalarni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar: - O'ralov A.S., Po'latov X. va boshqalar. Arxitekturaviy loyihalash asoslari. Darslik. T.: 2015 y. - Boboyorova Sh., Abdurahimov R. Arxitekturaviy loyihalash asoslari. O'quv qo'llanma. T.: 2017 y. - Asqarova D., Miryusupova M. Kichik me'moriy shakllar. T.: 2007 y. - Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b. - Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b

6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.	
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz .	
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.	
9. O'ralov A.S. Rahimov A.Q, Saidova B.A. Arxitekturaviy loyihalash va kompozitsiya asoslari. Samarqand: 2005y.	
10. Po'latov X. va boshqalar. Arxitekturaviy kompozitsiya asoslari. Darslik T.: 2005y.	
Axborot manbaalari:	
11. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.	
12. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.	
13. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)	
14. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)	
15. www.ziyo.net	
16. www.msus.org	
17. www.centrasia.uz	
18. www.arx.novosibdom.ru	
19. www.zamnews.uz	
20. www.ZiyoNET.uz	
7. Urganch davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.	
8. Fan mashg'uloti olib boruvchi professor-o'qituvchi to'g'risida ma'lumot Madirimov Xushnodbek Alimbayevich Kafedra joylashgan joyi: UrDU, Texnika fakulteti, Gurlan ko'chasi 1-uy Telefon: 90-557-84-55 E-mail: xushnodbekmadirimov48@gmail.com	
9. Taqrizchi: Sh.Sh.Duschanov "Arxitektura" kafedrasida katta o'qituvchisi	

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH

Nazorat turlari

Ushbu fan faqat amaliy mashg'ulotdan iborat (fan bo'yicha nazariy mashg'ulotlar nazarda tutilmagan). Talabalar bilimni nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Oraliq nazorat 11- haftasida talabning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida 1 marta o'tkaziladi.

Talabning amaliy mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek, uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Baholash talablar bilimni baholash mezonlari nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Talabani oraliq nazorat (O.N) turi bo'yicha baholashda talaba auditoriyadan tashqari bajargan mustaqil ishi (loyiha, klauzura va b.) bahosi hamda uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari o'rtachasi hisoblanib yaxlitlab qo'yiladi.

1. O'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari	O.N
2. Talaba tomonidan auditoriyadan tashqari bajargan mustaqil ishi bahosi	

Yakuniy nazorat (Ya.N.) turi semestr yakunida ushbu fan bo'yicha talabning amaliy bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida talablar auditoriyada bajargan loyiha ishini himoya bahosi va shu amaliy (loyiha) ishga yozilgan sharh (12 varaq daftarga) bahosi hamda talaba auditoriyadan tashqari bajargan mustaqil ishlari uchun qo'yilgan baho umumlashtirilib Ya.N. bahosi qo'yiladi:

1. Talablar auditoriyada bajargan amaliy (loyiha) ishini himoya bahosi	Ya.N.
2. Amaliy (loyiha) ishga yozilgan sharh bahosi	
3. Mustaqil ishlari uchun qo'yilgan baho	

Yakuniy nazorat turini o'tkazish ushbu shakli kafedra tomonidan belgilangan.

Talablar bilimni baholash mezonlari

Talabalar bilimni quyidagi mezonlar asosida:

- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **5 (a'lo) baho**;
- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **4 (yaxshi) baho**;
- talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — **3 (qoniqarli) baho**;
- talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

Talablar bilimni baholashda umumiy qoidalar

Talabalar bilimni baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi. Yakuniy nazorat, Texnika fakulteti dekani tomonidan ishlab chiqilgan (o'quv ishlari bo'yicha prorektor tasdiqlagan) Yakuniy nazorat turlarini o'tkazish jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi.

Agar ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan nazorat turlarini o'tkazilish tartibi buzilganligi aniqlangan hollarda, o'tkazilgan nazorat turlarining natijalari bekor qilinishi hamda tegishli nazorat turi qaytadan o'tkazilishi mumkin.

Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart. Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o'ta olmagan taqdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o'tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Berilgan muddat davomida mavjud bo'lgan qarzdorlikni topshira olmagan talaba bo'yicha fakultet dekani bildirgi bilan oliy ta'lim muassasasi rektorini (boshlig'ini, filial direktorini) xabardor qiladi va ushbu talaba rektor (boshliq, filial direktori) buyrug'i asosida kursdan qoldiriladi.

Talaba baholash natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, baholash natijasi e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida apellyatsiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyatsiya fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellyatsiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqiladi. Talabning apellyatsiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega. Apellyatsiya komissiyasi talabning apellyatsiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha ushbu